

# Ma'lumotlarni xotiraga muloqot usulida kiritish operatori

1. **Ma'lumotlarni xotiraga muloqot usulida kiritishda qaysi operatoridan foydalaniladi?**

*Kiritish operatoridan.*

2. **Kiritish operatorining xizmatchi so'zlari qaysilar?**

*Read (read (ing.) — o'qish) va ReadLn Paskalning xizmatchi so'zlari.*

3. **Kiritish operatorining vazifasi nima?**

*Kiritish operatori dastur ishlashini to'xtatadi va ro'yxatdagi o'zgaruvchilarga klaviatura orqali qiymat berilishini kutadi.*

4. **Read va Readln operatorlarining farqlari nimada?**

*Bitta yoki bir nechta alohida yozilgan Read operatori yordamida kiritiladigan o'zgaruvchilar qiymati bir satrda probellar bilan ajratib kiritilishi mumkin. Readln operatori esa faqat o'zining ro'yxatida keltirilgan o'zgaruvchilarni- gina qiymatini bir satrda probellar bilan ajratib kiritilishiga imkon beradi. Shuning uchun Readln operatoridagi ro'yxat tugagach keyingi kiritish operatorini ishlashi uchun albatta ENTER klavishini<sup>1</sup> jsish shart.*

5. **Paskalda dastur bajai ilishi natijasida barcha natijalar ekranga chiqarilganidan so'ng natijani ko'rib olgunimizcha dasturni kuttirish uchun qanday amal bajarishimiz kerak?**

*end. operatoridan awal ro'yxatsiz readln operatorini yozish kerak. Bu operator kutilgan natijani berishi uchun undan oldin yozilgan oxirgi kiritish operatori ham LN qo'shimchasi bilan yozilgan bo'lishi shart.*